



BUGUNGI KUNDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MASALALARI

Mahmudov Murodjon Alisher o'g'li

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabsi

Annotatsiya: Ushbu tezisda jahonda va O'zbekistonda axborot xavfsizligi, kiberhujumlarning tahlili va qanday chora tadbirlar ko'rilayotgani haqida so'z boradi.

Kalit zo'zlar: axborot, ijtimoiy tarmoqlar, internet, bank kartalari, kiberhujum, kiberjinoyatlar

Абстракт: В данной диссертации рассматривается информационная безопасность в мире и в Узбекистане, дается анализ кибератак и какие меры предпринимаются.

Ключевые слова: информация, социальные сети, интернет, банковские карты, кибератака, киберпреступность

Abstract: This thesis discusses information security in the world and in Uzbekistan, an analysis of cyberattacks, and what measures are being taken.

Key words: information, social networks, internet, bank cards, cyberattack, cybercrime



KIRISH

Axborot asriga kelib zamonaviy texnologiyalardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish miqdori anchagina rivojlangan. 2025-yil fevral holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab 5,56 milliard kishi internet foydalanuvchisi bo'lgan. Bu butun dunyo aholisining 67,9 foizini tashkil qiladi. Yer yuzida milliardlab odamlarni bog'laydigan internet zamonaviy axborot jamiyatining asosiy ustunidir. U orqali jamoatchilikda har qanday yo'nalishda masofaviy ishlar, keng ilmiy-nazariy amaliyotlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, barcha xizmatlar elektronlashtirilmoqda. Bunda foydalanuvchilar maxsus tizimlar orqali online xizmatlardan foydalanishmoqda. Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

XXI asrning 2-yarmi va XX asr boshlari telekommunikatsiya, kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot hamda ma'lumotlarni shifrlashning jadal rivojlandi, ixcham, kuchli va arzon hisoblash uskunalarning paydo bo'ldi, kompyuterlarning Internetga ulanishi osonlashdi, bu esa elektron biznesning jadal rivojlanishiga olib keldi. Shuning bilan birga bu "Kompyuter xavfsizligi" va "Axborot xavfsizligi texnikasi" kabi ilmiy tushunchalarni olib kirdi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Bugungi kunda internetdan foydalanish anchagina xavf hamda turli axborot tahdidlarini keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan tegishli tartibda buning oldini olinishi uchun chora-tadbirlar e'lon qilingan. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar axborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlovchi strukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.



Jumladan, shaxsiy ma’umotlarni o’g’irlash, ulardan turli manfaatlar yo’lida foydalanish, bank kartalaridan pul yechib olish va shu kabilar tez-tez uchramoqda.

Axborot tahdidlarining turlari.

Tasodifiy tahdidlar:

- Foydalanuvchilarning xatoliklari
- Foydalanuvchilarning uquvsizligi va mas’uliyatsizligi
- Axborot tizimlaridagi xatoliklar

Qasddan qilingan tahdidlar:

- Axborot tizimlariga fizik ta’sir etish
- Axborotlarni o’g’irlash
- Xakerlik hujumlari

Statistik ma’lumotlarga ko’ra Kasperskiy laboratoriyasining interaktiv kiber-tahdid sektori axborot hujumlari soni bo’yicha O’zbekiston 2025-yil 10-yanvar holatiga ko’ra 43-o’rinni egallashini tasdiqlab o’tkan. Ba’zi manbalarda shu yil hisobiga ko’ra yurtimizda kiberjinoyatlar yetkazgan zararining umumiy foydasi 10,5 trillion dollarga yetgani haqida aytib o’tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu kabi holatlarni oldini olishda axborot xavfsizligi juda muhimdir. U axborotni tasodifiy yoki qasddan ta’sir qilishdan himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Shu boisdan 2025-yil 30-aprelda O’zbekisto Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.



Qarorga ko'ra:

- Banklar, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida yo'l qo'yilgan kiberjinoyat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibini joriy etish belgilandi.

- Bundan keyin kiberjinoyatni sodir etishda o'z nomidagi bank kartasidan, bank hisob raqami, elektron hamyonidan va boshqa shaxsiga doir ma'lumotlaridan (SIM kartasi, elektron akkaunti) foydalanishga yo'l qo'ygan shaxslar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari o'rnatiladi.

- Kiberjinoyatlarning oldini olish yo'nalishida axborot tizimidagi zaifliklar va kamchiliklar natijasida kiberjinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ygan banklar va to'lov tashkilotlari ro'yxatini ommaga e'lon qilish hamda aholi pul mablag'larini jalb qilishga qaratilgan onlayn firibgarlik sxemalari ("moliyaviy piramida")ni barvaqt aniqlash amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

- Shuningdek, qaror bilan shaxslarning bank kartalaridagi pullarini talon-toroj qilinishini to'xtatish maqsadida banklar, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlariga zamonaviy antifrod va antivirus himoya tizimlarini joriy etish hamda firibgarlar tomonidan soxta raqamlar orqali fuqarolarga qo'ng'iroq qilishlarini texnik (imkonsiz qilish) cheklash kabi choralar belgilandi.

Bu harakatlar orqali jamoatchilikda ro'y berayotgan kiberhujumlarni oldini olish, kamaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va aholida xushyorlikni oshirish ko'zda tutilgan. Eslatma o'rnida yana bir bor sizlarga ta'kidlab o'tmoqchimiz. Ijtimoiy tarmoqlardan sizga yuborilgan turli shubhali xabarlar, apk. fayllarini aslo ocha ko'rmang, bank kartalaringiz haqida ma'lumotlarni hech kimga aytmang va sizga notanish



raqamlardan shaxsiy ma'lumotlar va kodlar haqida so'rashganda ularni sir tuting. Zero, bu jamiyatning katta xavfiga aylanib qolishini oldini olish barchamizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tahirov Behzod Nasriddinovich Buxoro-2022. "Fan va ta'lim" nashriyoti Maqola. "AXBOROT XAVFSIZLIGI ASOSLARI"
2. Daryo.uz "O'zbekistonda internet resurslariga 2024-yil boshidan buyon 3 milliondan ortiq hujumlar uyushtirdi"
3. Internet resur https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_xavfsizligi